



Farg'ona viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-iyul)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021-yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 12 994,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 102,0 %ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (93,0 %ni tashkil etdi.



B- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat **D**-Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi oshganligining asosiy omili, ishlab chiqaradigan sanoatda 1,4 %ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash, havoni konditsiyalash va suv bilan ta'minlash 12,8 %ga o'sishga erishildi.

Shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati bo'lib, - 26,5%ga, kanalizatsiya tizimi va chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlarda 30,2 %ga pasayishi kuzatildi.


*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami ishlab chiqarish hajmi va FHI, %da




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 71,2 mld. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 %ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat



2021-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat, korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining 12082,3 mld. so'mini yoki jami sanoat mahsulotlarining 93,0 %ini tashkil etdi, hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,4 %ga o'sish kuzatildi.


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 %ni (2020-yilning yanvar-iyul oylarida - 0,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali -12,2 % (14,4 %), o'rta-quyi texnologiyali - 26,0 % (28,9 %) va quyi texnologiyalisi – 54,3 % (49,0 %)ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 5,1 % (2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajmi indeksi 82,6 %), metalluriya sanoatining ulushi - 0,5 % (2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 56,6 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 34,2 % (2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 128,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,7 % (2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi –11,3 % (2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 84,0 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i mahsulotlarining ishlab chiqarish hajmlari

2021-yilning yanvar-iyul oylari davomida 2020-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan dizel yoqilg'isi 2,3 %ga, neft bitum 203,9%, klinkersement 21,1 %, Paxta linti 75% ortgan)



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar
tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-iyul	2021- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Avtomobil benzini, ming t	125,4	131,2	5,8
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	164,5	151,1	-13,4
Paxta tolasi, ming t.	17,6	30,1	12,5
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	12,2	19,4	7,2

**Ishlab chiqaradigan sanoatda, yirik sanoat korxonalari
tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-iyul	2021- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Portlandsement, ming t.	739,0	564,8	-175
Klinkersement, ming t.	432,0	525,1	93
Natriy nitrat ming. t	3,0	3,0	-
Dizel yoqilg'isi, ming t.	198,9	207,6	8,2

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

2021- yilning yanvar-iyul oylarida



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 759,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,8 %ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 3,9 %ga o'sishi kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-iyul	2021- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	158,8	214,1	55,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1163,4	970,9	-192,5

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 82,2 mldr.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 %ini) tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-iyul	2021- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mldr.so'm	9,3	9,4	0,1
Xavsiz chiqindilarni yig`ish bo'yicha xizmatlar, mldr.so'm	10,0	10,1	0,1
To'qimachilik chiqindilari, t.	7726,3	7899,9	173,6

O'tgan yilning mos davriga nisbatan axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 0,4 % ga , to'qimachilik chiqindilari esa 2,2% ga oshganligi, kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4 988,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va uning jami sanoatdagi ulushi 38,4 %ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino, aroq mahsulotlari va pivoning ulushi 1,7 % (2020- yil yanvar-iyul oylarida 1,8 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo'qon shahriga to'g'ri kelib, 17,2 %ni, shuningdek, Uchko'prik tumani 16,6 %ni, Farg'ona shahri 11,5 %ni, Marg'ilon shahri 9,2 %ni, Bag'dod tumani 7,9 %ni hamda Toshloq tumani 7,3 %ni, tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (101,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich, Oltiariq tumanida (245,0 %), Furqat tumanida (200,5 %), Rishton tumanida (148,2 %), hamda Quvasoy (138,7 %) shahrida qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
2021- yilning yanvar-iyul oylarida**

		<i>Hajmi mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi %</i>	<i>O'sish sur'ati %</i>
1	<i>Oltiariq t.</i>	85,3	1,7	245,0
2	<i>Qo'shtepa t.</i>	143,7	2,9	75,3
3	<i>Bag'dod t.</i>	393,1	7,9	100,8
4	<i>Buvayda t.</i>	201,7	4,0	107,3
5	<i>Beshariq t.</i>	79,2	1,6	55,1
6	<i>Quva t.</i>	133,2	2,7	113,0
7	<i>Uchko'prik t.</i>	825,6	16,6	98,0
8	<i>Rishton t.</i>	117,0	2,3	148,2
9	<i>So'x t.</i>	38,8	0,8	85,6
10	<i>Toshloq t.</i>	363,0	7,3	98,2
11	<i>O'zbekiston t.</i>	142,9	2,9	111,8
12	<i>Farg'ona t.</i>	62,6	1,3	75,0
13	<i>Dang'ara t.</i>	204,5	4,1	105,6
14	<i>Furqat t.</i>	146,9	2,9	200,5
15	<i>Yozyovon t.</i>	68,2	1,4	108,5
16	<i>Farg'ona sh.</i>	574,6	11,5	95,8
17	<i>Qo'qon sh.</i>	857,8	17,2	95,4
18	<i>Quvasoy sh.</i>	91,1	1,8	138,7
19	<i>Marg'ilon sh.</i>	458,8	9,2	107,1
<i>Farg'ona viloyati</i>		<i>4988,0</i>	<i>100,0</i>	<i>101,1</i>

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo'qon shahriga to'g'ri kelib 15,2 %ni, shuningdek Uchko'prik tumani 16,9 %ni, Farg'ona shahri 14,1 %ni hamda Toshloq tumani 11,0 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Oltiariq (236,5 %), Rishton (181.2 %), Furqat (490.9 %) Dang`ara (111,5 %) Buvayda (142,4 %) tumanlarida qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
2021- yilning yanvar-iyul oylarida**

		<i>Hajmi mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi %</i>	<i>O'sish sur'ati %</i>
1	<i>Oltiariq t.</i>	32,5	1,1	236,5
2	<i>Qo'shtepa t.</i>	72,0	2,4	63,6
3	<i>Bag'dod t.</i>	208,7	7,0	100,6
4	<i>Buvayda t.</i>	125,3	4,2	142,4
5	<i>Beshariq t.</i>	39,7	1,3	42,8
6	<i>Quva t.</i>	36,5	1,2	91,7
7	<i>Uchko'prik t.</i>	503,5	16,9	95,3
8	<i>Rishton t.</i>	77,7	2,6	181,2
9	<i>So'x t.</i>	14,2	0,5	92,6
10	<i>Toshloq t.</i>	327,6	11,0	99,8
11	<i>O'zbekiston t.</i>	68,7	2,3	89,1
12	<i>Farg'ona t.</i>	24,4	0,8	63,2
13	<i>Dang'ara t.</i>	144,0	4,8	111,5
14	<i>Furqat t.</i>	61,3	2,1	490,9
15	<i>Yozyovon t.</i>	26,5	0,9	83,5
16	<i>Farg'ona sh.</i>	421,6	14,1	97,1
17	<i>Qo'qon sh.</i>	455,0	15,2	116,5
18	<i>Quvasoy sh.</i>	48,2	1,6	113,6
19	<i>Marg'ilon sh.</i>	296,5	9,9	118,5
<i>Farg'ona viloyati</i>		<i>2983,7</i>	<i>100,0</i>	<i>103,7</i>

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo'qon shahriga to'g'ri kelib, 20,1 %ni, shuningdek, Uchko'prik tumanida 16,1 %ni, Bag'dod tumanida esa 9,2 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Oltiariq tumanida (250,5 %), Quvasoy shahrida (184,3%) Furqat tumanida (140,8 %), Yozyovon tumanida (134,1 %) O'zbekiston tumanida (146,4%) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
2021- yilning yanvar-iyul oylarida

		<i>Hajmi mld. so'm</i>	<i>Ulushi %</i>	<i>O'sish sur'ati %</i>
1	<i>Oltiariq t.</i>	52,8	2,6	250,5
2	<i>Qo'shtepa t.</i>	71,8	3,6	92,4
3	<i>Bag'dod t.</i>	184,4	9,2	101,0
4	<i>Buvayda t.</i>	76,3	3,8	76,3
5	<i>Beshariq t.</i>	39,5	2,0	77,6
6	<i>Quva t.</i>	96,7	4,8	123,8
7	<i>Uchko'prik t.</i>	322,1	16,1	102,5
8	<i>Rishton t.</i>	39,3	2,0	108,9
9	<i>So'x t.</i>	24,7	1,2	82,0
10	<i>Toshloq t.</i>	35,3	1,8	86,1
11	<i>O'zbekiston t.</i>	74,3	3,7	146,4
12	<i>Farg'ona t.</i>	38,1	1,9	85,2
13	<i>Dang'ara t.</i>	60,5	3,0	93,7
14	<i>Furqat t.</i>	85,6	4,3	140,8
15	<i>Yozyovon t.</i>	41,7	2,1	134,1
16	<i>Farg'ona sh.</i>	153,0	7,6	92,2
17	<i>Qo'qon sh.</i>	402,9	20,1	79,2
18	<i>Quvasoy sh.</i>	42,9	2,1	184,3
19	<i>Marg'ilon sh.</i>	162,3	8,1	91,2
	<i>Farg'ona viloyati</i>	2004,3	100,0	97,3




**Farg'ona viloyati hududlari kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari
2021- yilning yanvar-iyul oylarida**


		<i>Hajmi mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi %</i>	<i>FHI %</i>
1	<i>Oltiariq t.</i>	228,5	1,8	116,5
2	<i>Qo'shtepa t.</i>	390,0	3,0	132,6
3	<i>Bag'dod t.</i>	444,6	3,4	103,3
4	<i>Buvayda t.</i>	277,8	2,1	104,8
5	<i>Beshariq t.</i>	318,4	2,4	106,5
6	<i>Quva t.</i>	290,2	2,2	106,4
7	<i>Uchko'prik t.</i>	969,5	7,5	104,3
8	<i>Rishton t.</i>	206,3	1,6	116,3
9	<i>So'x t.</i>	50,7	0,4	101,3
10	<i>Toshloq t.</i>	1 761,7	13,6	112,8
11	<i>O'zbekiston t.</i>	443,6	3,4	107,2
12	<i>Farg'ona t.</i>	314,5	2,4	141,5
13	<i>Dang'ara t.</i>	299,7	2,3	108,6
14	<i>Furqat t.</i>	172,0	1,3	144,1
15	<i>Yozyovon t.</i>	69,6	0,5	109,4
16	<i>Farg'ona sh.</i>	3 470,7	26,7	79,1
17	<i>Qo'qon sh.</i>	2 080,7	16,0	105,3
18	<i>Quvasoy sh.</i>	667,9	5,1	100,8
19	<i>Marg'ilon sh.</i>	538,3	4,1	104,0
Farg'ona viloyati		12 994,7	100,0	102,0

**Farg'ona viloyat hududlari kesimida ishlab
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati %da**

Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining o'sishiga asosiy omil sifatida, Furqat (2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 144,1 %), Farg'ona (141,5 %), Qo'shtepa (132,6 %), Oltiariq (116,5 %), Rishton (116,3 %), Toshloq (112,8 %) tumanlari hamda Quqon (105,3 %) shahri sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada o'sishi bilan izohlashimiz mumkin.



Farg'ona viloyatida jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, %da



Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng yuqori ulush Farg'ona shahri (Farg'ona viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmining 26,7 %) hamda Qo'qon shahri (16,0 %), Toshloq tumani (13,6 %) Uchko'prik tumani (7,5 %), Quvasoy shahri (5,1 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa So'x (0,4 %), Yozyovon (0,5 %), Furqat (1,3 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Farg'ona (11 773,0 ming so'm), Qo'qon (8 089,8 ming so'm), Quvasoy (7 001,6 ming so'm) shaharlarda va Toshloq (8 543,8 ming so'm) tumanida yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Farg'ona viloyati bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1 300,2 ming so'm bo'lgan holda, Uchko'prik tumani – 3 543,4 ming so'mni, Qo'qon shahri – 3 335,2 ming so'mni, Farg'ona shahri – 1 949,2 ming so'mni, Bag'dod tumani – 1 788,3 ming so'mni, Toshloq tumani 1 760,3 ming so'mni, Furqat tumanida 1 226,2 ming so'mni, Dang'ara tumani – 1 152,7 ming so'mni tashkil etdi.




**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish
2021- yilning yanvar-iyul oylarida, ming so‘m**

		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste’mol mahsulotlari</i>
1	<i>Oltiariq t.</i>	1060,8	396,0
2	<i>Qo‘shtepa t.</i>	2006,3	739,4
3	<i>Bag‘dod t.</i>	2022,5	1788,3
4	<i>Buvayda t.</i>	1196,9	868,8
5	<i>Beshariq t.</i>	1375,2	342,1
6	<i>Quva t.</i>	1106,7	508,0
7	<i>Uchko‘prik t.</i>	4161,1	3543,4
8	<i>Rishton t.</i>	1005,2	570,0
9	<i>So‘x t.</i>	638,5	489,0
10	<i>Toshloq t.</i>	8543,8	1760,3
11	<i>O‘zbekiston t.</i>	1827,2	588,7
12	<i>Farg‘ona t.</i>	1447,5	287,9
13	<i>Dang‘ara t.</i>	1689,2	1152,7
14	<i>Furqat t.</i>	1435,8	1226,2
15	<i>Yozyovon t.</i>	617,9	605,4
16	<i>Farg‘ona sh.</i>	11773,0	1949,2
17	<i>Qo‘qon sh.</i>	8089,8	3335,2
18	<i>Quvasoy sh.</i>	7001,6	955,0
19	<i>Marg‘ilon sh.</i>	2245,6	1914,0
Farg‘ona viloyatida		3387,3	1300,2

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi 2021- yilning yanvar-iyul oylarida, %da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5139,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiyl ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 39,6 %ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Beshariq (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), So‘x (100,0 %), Furqat (100,0 %), va Yozyovon (100,0 %) tumanlarida hamda Marg‘ilon shahri (100,0 %)da kuzatildi.

Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Farg'ona (14,9 %), Quvasoy (15,7 %), Qo‘qon (34,6 %) shaharlarida hamda Toshloq (10,7 %), Farg'ona (21,6 %), Quva (29,3 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra)**

Bugungi kunda viloyatda 9934 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1503 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 15,1 %) Qo'qon shahriga, 1120 tasi (11,3 %) Farg'ona shahriga, 1 083 tasi (10,9 %) Marg'ilon shahriga, 681 tasi (6,9 %) Uchko'prik tumaniga, 568 tasi (5,7 %) O'zbekiston tumaniga, 563 tasi (5,7 %) Buvayda tumaniga to'gri kelmoqda.



2021- yilning yanvar-iyul oyida viloyatda 1395 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 143 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 10,3 %) Qo'qon shahrida, 107 tasi (7,7 %) Farg'ona shahrida, 100 tasi (7,2 %) Marg'ilon shahrida, 85 tasi (6,1 %) Uchko'prik tumanida, 101 tasi (7,2 %) Dang'ara tumanida, 81 tasi (5,8 %) Rishton tumanida, 60 tasi (4,3 %) Oltiariq tumanida, hamda 78 tasi (5,6 %) O'zbekiston tumanida tashkil etildi.



FARG'ONA VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

Farg'ona viloyat statistika
boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: Sh.Zokirov
Aloqa telefoni: 73 -249-87-19